VATANPARVARLIK FENOMENINING MAZMUN-MOHIYATI VA UNI YOSHLARDA RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Raximov Alisher Sharofidinovich
Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'i,
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent

Annotatsiya. *Maqolada Yangi O'zbekistonning ma'naviy yuksalish jarayonida vatanparvarlik fenomenining mazmun-mohiyati ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Lug'aviy manbalar, falsafiy-axloqiy qarashlar hamda mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning talqinlari qiyosiy o'rganilib, vatanparvarlik, vatanni sevish, sadoqat, fidoyilik va xiyonat tushunchalarining o'zaro nisbati ochib berilgan. Vatanparvarlik individual va ijtimoiy darajalarga tasniflangan, uning axloqiy mezonlari (fidoiylik, burch, mas'uliyat, qahramonlik, chidamlilik, sadoqat, g'urur, oriyat) hamda unga zid illatlar (munofiqlik, beparvolik, qo'rqoqlik, sotqinlik) tizimlashtirilgan. Tadqiqot natijasida vatanparvarlikning axloq falsafasining asosiy tamoyili sifatidagi mohiyati va yoshlarda uni shakllantirishning konseptual asoslari asoslab berildi.*

Kalit so'zlar: *vatanparvarlik, fenomen, yoshlar, ma'naviy yuksalish, sadoqat, fidoiylik, burch, xiyonat, axloqiy mezonlar, Yangi O'zbekiston.*

THE CONTENT AND ESSENCE OF THE PHENOMENON OF PATRIOTISM AND THE SOCIO-PHILOSOPHICAL ASPECTS OF ITS DEVELOPMENT AMONG YOUTH

Abstract. *The article analyses the essence of the phenomenon of patriotism in the process of the spiritual advancement of New Uzbekistan from a socio-philosophical perspective. Lexicographic sources, philosophical and ethical views, and the interpretations of national and foreign scholars are compared, and the relationship between the concepts of patriotism, love of the homeland, loyalty, selflessness and betrayal is revealed. Patriotism is classified into individual and social levels; its moral criteria (selflessness, duty, responsibility, heroism, endurance, loyalty, pride and sense of honour) and the opposing vices (hypocrisy, indifference, cowardice and treachery) are systematised. The study substantiates patriotism as a core principle of moral philosophy and outlines the conceptual foundations for developing it among young people.*

Keywords: *patriotism, phenomenon, youth, spiritual advancement, loyalty, selflessness, duty, betrayal, moral criteria, New Uzbekistan.*

СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ФЕНОМЕНА ПАТРИОТИЗМА И СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ЕГО РАЗВИТИЯ У МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В статье с социально-философской точки зрения анализируется сущность феномена патриотизма в процессе духовного подъёма Нового Узбекистана. Проведён сравнительный анализ лексикографических источников, философско-этических взглядов и трактовок отечественных и зарубежных исследователей; раскрыто соотношение понятий патриотизма, любви к Родине, верности, самоотверженности и предательства. Патриотизм классифицирован на индивидуальный и социальный уровни, систематизированы его нравственные критерии (самоотверженность, долг, ответственность, героизм, стойкость, верность, гордость, чувство чести) и противостоящие им пороки (лицемерие, равнодушие, трусость, предательство). Обоснована роль патриотизма как основного принципа этики и определены концептуальные основы его формирования у молодёжи.*

Ключевые слова: *патриотизм, феномен, молодёжь, духовный подъём, верность, самоотверженность, долг, предательство, нравственные критерии, Новый Узбекистан.*

KIRISH

Bugungi global kurash muhitida, milliy manfaatlar uchun raqobat kuchayib borayotgan sharoitda yoshlarda yuksak insoniylikka asoslangan chinakam vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning ob’yektiv shart-sharoitlarini chuqur o‘rganish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan shaxs sifatida tarbiyalash vazifasi belgilangan [1]. Bu vazifaning ilmiy-nazariy asosini vatanparvarlik tushunchasining mazmun-mohiyatini aniq belgilab olish tashkil etadi.

Vatanparvarlik fenomeni falsafa, axloqshunoslik, psixologiya, pedagogika va siyosatshunoslik chorrahasida o‘rganiladi. Biroq mavjud tadqiqotlarda bu tushunchaga yondashuvlar bir xil emas: ba’zan u vatanga muhabbat bilan aynan bir tushuncha sifatida qaraladi, boshqa ishlarda esa ijtimoiy-ruhiy tuyg‘u yoki axloqiy tamoyil sifatida talqin etadi. Natijada vatanparvarlik, vatanni sevish, sadoqat, fidoyilik kabi o‘zaro yaqin tushunchalar ko‘pincha aralashtirib yuboriladi. Bu esa yoshlar tarbiyasida aniq maqsad va baholash mezonlarini belgilashni qiyinlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi vatanparvarlik fenomenining mazmun-mohiyatini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va uni yoshlarda rivojlantirishning konseptual asoslarini aniqlashdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

1) vatanparvarlik tushunchasining lug‘aviy va ilmiy talqinlarini qiyosiy o‘rganish;

2) vatanparvarlik va vatanni sevish tushunchalarining o‘xshash hamda farqli jihatlarini aniqlash;

3) vatanparvarlikning individual va ijtimoiy darajalarini, uning sadoqat, fidoyilik va xiyonat tushunchalari bilan aloqasini ochib berish;

4) vatanparvarlikning axloqiy mezonlarini va unga zid illatlarni tizimlashtirish.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mavzu bo‘yicha adabiyotlarni shartli ravishda to‘rt guruhga ajratish mumkin. *Birinchi guruhni* lug‘aviy va ensiklopedik manbalar tashkil etadi. Falsafiy lug‘atda fenomen tushunchasi mohiyatning namoyon bo‘lishi sifatida talqin qilinadi [2]; izohli lug‘at va Islom ensiklopediyasida esa «vatan» va «vatanparvarlik» so‘zlarining ma’no doirasi hamda ularga yondosh tushunchalar (vatandosh, vatanfurush kabi) keltiriladi [3][4].

Ikkinchi guruh vatanparvarlikni axloqiy va ijtimoiy-ruhiy hodisa sifatida talqin etuvchi zamonaviy tadqiqotlardan iborat. A. Sher vatanparvarlikni insonning Vataniga muhabbatini va uni asrab-avaylashga ishtiyoqini anglatuvchi axloqiy tushuncha deb ta’riflaydi [5, 143-b.]. E. Yusupov vatanga muhabbatni siyosiy mafkuradan ko‘ra ko‘proq barkamol axloq va yetuk ma’naviyat sifatida baholaydi [6, 148–164-b.]. Q. Nazarov vatanparvarlikni tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan, umrbod kengayib boruvchi umumbashariy ijtimoiy-ruhiy tuyg‘u sifatida izohlaydi [7, 84-b.]. E. Qalqanov esa vatanparvarlikni ijtimoiy ong shakllarining atributiv xususiyati deb qarab, uning ildizini sadoqat tashkil etishini ta’kidlaydi [8, 12, 18-b.].

Uchinchi guruhga axloq falsafasining klassik manbalari kiradi: I. Kantning huquqiy va axloqiy burch haqidagi qarashlari [9], A.N. Radishevning vatanparvarlikni boshqa fazilatlardan ajratuvchi belgilari [10], A. Avloniyning intizom haqidagi fikrlari [11] va A. Navoiyning mardlik, sadoqat haqidagi mulohazalari [12]. *To‘rtinchi guruh* vatanparvarlik tarbiyasiga bag‘ishlangan dissertatsion va ilmiy-uslubiy ishlar bo‘lib, ularda tarbiyaga kompleks va tabaqalashgan yondashuv, milliy g‘oyaning o‘rni, tarbiya tizimining mazmuni yoritiladi [13][14][15]. Bu ishlarning ko‘pchiligida harbiy vatanparvarlik yo‘nalishi ustuvor bo‘lib, vatanparvarlikni umumiy axloqiy-falsafiy kategoriya sifatida,

uning tushunchaviy chegaralari va fazilat–illat dialektikasi bilan birgalikda ko‘rib chiqishga ehtiyoj saqlanib qolmoqda.

Metodologiya. Tadqiqot ijtimoiy-falsafiy tahlil doirasida bajarildi. Unda tahlil va sintez, qiyosiy-tahliliy yondashuv, tarixiylik va mantiqiylik birligi, tizimli yondashuv, tushunchalarni lug‘aviy (leksikografik) tahlil qilish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Manba bazasini lug‘atlar va ensiklopediyalar, monografiyalar, dissertatsiya hamda avtoreferatlar, klassik asarlar va me’yoriy-huquqiy hujjat tashkil etdi.

ASOSIY QISM

Vatanparvarlik fenomenining falsafiy-lug‘aviy mohiyati

Falsafa tarixida fenomen (yun. *phainomenon* — yuz beruvchi) mohiyat yoki hodisaning ifodasi, namoyon bo‘lishi sifatida talqin etiladi; bu talqin Leybnits, Shelling va Gegel qarashlarida o‘z aksini topgan [2]. Shu ma’noda vatanparvarlik fenomeni ma’naviy-axloqiy merosdagi in’ikosi ijtimoiy-tarixiy hayotda burilish yasagan, xalqning erki, ozodligi va kelajagini ta’minlash yo‘lidagi kurashga yo‘lboshchilik qilgan hamda bu faoliyatning axloqiy namunasi bo‘lgan shaxslar siymosi bilan belgilanadi. Shiroq, To‘maris, Spitamen, Mahmud Torobiy, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi ajdodlarning jasorati avlodlar uchun vatanparvarlik va shijoat timsoli hisoblanadi.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida vatanparvarlik «vatanparvarlarga xos ish, hatti-harakat, xislat», vatanparvar esa o‘z vatanini, ona yurtini, xalqini cheksiz sevuvchi va vatan manfaatlari uchun jonbozlik ko‘rsatuvchi shaxs sifatida ta’riflanadi [3, 16–17-b.]. Lug‘atda shuningdek vatangada, vatandosh, vatanjudolik, vatanfurush, vatanfurushlik kabi so‘zlar izohlangan. Ularni mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin: vatanga sadoqatni ifodalovchi va unga xiyonatni bildiruvchi tushunchalar. Islom ensiklopediyasida Vatan kishilarning tug‘ilib o‘sgan yurti, tarixan muayyan xalqqa tegishli hudud hamda uning tabiati, aholisi, tili, madaniyati, turmushi va urf-odatlari majmui sifatida ta’riflanib, Vatan oldidagi qarzdorlik tuyg‘usi har bir yetuk insonga xos sifat ekani qayd etiladi [4, 122-b.].

Vatanparvarlik axloq falsafasining asosiy tamoyili sifatida namoyon bo‘ladi. Tamoyil sifatida u, birinchidan, insoniy fazilatning ibtidosi va asosi; ikkinchidan, har qanday axloqiy xatti-harakat va faoliyatning boshlang‘ich qoidasi. Xususiyat sifatida esa, uchinchidan, bir qator axloqiy fazilatlarni o‘zaro bog‘laydi; to‘rtinchidan, ularning bir-birini to‘ldirishi va aloqasini ta’minlaydi. Shu bois vatanparvarlik muhabbat, burch, mas’uliyat, sadoqat, mardlik, jasorat, shafqat kabi tushunchalarga nisbatan ham xususiy, ham umumlashtiruvchi xossa hisoblanadi.

Vatanparvarlik va vatanni sevish tushunchalarining konseptual farqi

Tahlil davomida vatanparvarlik va vatanni sevish tushunchalari o‘xshash, biroq teng emasligi aniqlandi. Chinakam vatanparvarlik muhabbatdan tashqarida mavjud bo‘lmaydi, ammo vatanparvar bo‘lish faqat Vatanni sevish bilan cheklanmaydi. Sevgida inson o‘z hayotining bir qismini — hissiyoti, bilimi, kechinmalarini bag‘ishlaydi; vatanparvar esa Vatan oldidagi mas’uliyatni ham zimmasiga oladi, shu sababli «vatanparvar» sifatining qamrovi «vatanni sevuvchi» sifatiga qaraganda keng, mas’uliyati yuksak va maqsadi ulug‘roqdir [13, 25-b.]. Farqlar 1-jadvalda umumlashtirilgan.

1-jadval. Vatanni sevish va vatanparvarlik tushunchalarining farqli jihatlari

Mezon	**Vatanni sevish**	**Vatanparvarlik**
Mohiyati	Vatan bilan birlashishni anglash; muayyan shakldagi axloqiy tuyg‘u	Tuyg‘u va amaliy faoliyat birligi; ijtimoiy faollik
Burch va mas’uliyat	Asosan hissiy; burch va mas’uliyat birinchi o‘rinda turmaydi	Burch va mas’uliyat bilan chambarchas bog‘liq; vazifani ongli bajarish
Manfaatdorlik	Ko‘pincha «Vatan menga nima berdi?» degan savolga tayanadi	Beg‘araz; «Men Vatan uchun nima qildim?» degan savolga javob izlaydi
Barqarorlik	Gohida qat’iy, gohida o‘tkinchi (yoqtirib qolish)	Barqaror, har qanday sharoitda kelajakka ishonchni yo‘qotmaydi
Sa’y-harakat	Kuchli iztirob va mashaqqatni talab etmaydi	Fidoyilik, qiyinchilikka bardosh va kurashni talab etadi

Manba: muallif tahlili asosida tuzildi.

Burch masalasida I. Kantning qarashi muhim: huquqiy burchni bajarish tashqaridan majburlash orqali ta’minlansa, axloqiy burch ichki hodisa — ixtiyor erkinligi bilan bog‘liq, shu bois insonning axloqiy burchga muvofiq harakat qilish qobiliyati fazilat deb ataladi [9, 216]. Bu fikr vatanparvarlikning majburiy emas, ongli va ixtiyoriy mohiyatini ko‘rsatadi. A.N. Radishev esa vatanparvarlikni boshqa fazilatlardan uch belgi — sharaflilik, xushxulqlik va olijanoblik bilan farqlaydi [10, 116].

Vatanparvarlikning individual va ijtimoiy darajalari

Vatanparvarlikni individual va ijtimoiy darajalarga tasniflash maqsadga muvofiq. *Individual (shaxsiy)* daraja insonning ma'naviy dunyoqarashida, ezgu maqsadlarida va axloqiy intilishlarida muhim hamda barqaror xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. *Ijtimoiy* daraja esa ijtimoiy tafakkurning jamoaviy kayfiyatlarida, o'z xalqiga munosabatda, hayot tarzida, qadriyatlar tizimida, shuningdek boshqa xalqlarning tili, tarixi va madaniyatiga hurmatda ifodalanadi. Alohida shaxslarning faoliyati ijtimoiylashib, ko'pchilikka xos ma'naviyat darajasiga ko'tarilgandagina taraqqiyotning muhim omiliga aylanadi.

Ko'pmillatli mamlakat uchun vatanparvarlikning ijtimoiy darajasi alohida ahamiyatga ega. Vatanparvarlik faqat titul millat uchun emas, mamlakatda yashovchi barcha fuqarolar uchun daxldor tushuncha; fuqaro asosiy etnik guruh vakili bo'lmasligi ham mumkin. «Tarixiy Vatan» tushunchasi ko'pincha olis xotiraga, ajdodlarga hurmatdan kelib chiqadigan qo'msash sifatida namoyon bo'ladi, haqiqiy muhabbat esa sharoit ikki Vatandan birini tanlashni taqozo etganda hozir yashab turgan Vatan va vatandoshlarga nisbatan ayon bo'ladi.

Mualliflar talqinlarini umumlashtirish vatanparvarlikning falsafiy, axloqiy, ijtimoiy va ma'naviy mohiyatiga oid uchta xulosani shakllantirish imkonini berdi. Birinchidan, vatanparvarlik — davlat yashovchanligi va jamiyat rivojlanishining ichki safarbarlik manbai, shaxsning faol fuqarolik qarashlari va Vatanga fidokorona xizmat qilishga tayyorligida namoyon bo'luvchi ma'naviy asos. Ikkinchidan, u mamlakat yaxlitligi, suvereniteti va milliy xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan burch va majburiyat uchun asosiy mezon bo'lgan ijtimoiy xulq-atvor va fazilat. Uchinchidan, vatanparvarlik fuqarolarning erkinliklarini cheklash emas, aksincha, fuqarolik jamiyatining har tomonlama rivojlanish sharti sifatida ongli va ixtiyoriy qabul qilinuvchi qarashdir.

Xorijiy manbalarda ishlatiladigan «patriotizm» (yun. *patriotes* — vatandosh) tushunchasi Vatanga muhabbat, tug'ilib o'sgan yurt bilan bog'liqlik va unga sadoqat ma'nolarini ifodalaydi, biroq ko'pincha Vatan dushmanlariga qarshi ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatida talqin etiladi. Vatanparvarlikning mazmun qamrovi esa kengroq: u insonparvarlikning nisbatan muayyanlashgan shakli bo'lib, nafaqat vatandoshlar erkini asrash, balki inson ozodligi yo'lidagi harakatlarni ham qamrab oladi. Shu ma'noda Vatan himoyasi — inson va millat himoyasi bo'lib, u faqat jang maydonida emas, barcha sohalarda namoyon bo'lishi mumkin.

Sadoqat, fidoyilik va xiyonat tushunchalarining o'zaro aloqasi

Vatanga sadoqat axloqning oliy tamoyillaridan biri bo'lib, uni biror shaxs yaratmagan: u muayyan ijtimoiy munosabatlarga muvofiq hayot jarayonida axloqiy ong shakllari sifatida vujudga kelgan. Sadoqatga uyg'un tushuncha — fidoyilik. Izohli

lug'atda fidoyilik boshqalar manfaati yo'lida o'z qonuniy manfaatlarini, hatto hayotini qurbon qilishga tayyorlikni ifodalovchi ma'naviy tushuncha sifatida ta'riflanadi [16, 586-b.]. O. Mahmudov fidoiylikning ilk belgisini yurtparvarlikda ko'radi: yurtparvarlik bor joyda Vatanga sodiqlik oliy maqsadga aylanadi [17, 87-b.]. Demak, vatanparvarlik va fidoyilik o'zaro juda yaqin, bir-birini taqozo etuvchi fazilatlardir. Ayni paytda Qalqanov sadoqatni vatanparvarlikning mavjudlik sharti sifatida ko'rsatadi [8, 12-b.].

Vatanparvarlikka qarama-qarshi tushuncha — vatanga xiyonat. Xiyonat kimgadir yoki nimagadir sodiqlikni saqlash majburiyatlarini buzish sifatida tushuniladi: davlatga xiyonat, umumiy ishga xiyonat, mamlakat manfaatlariga xiyonat shular jumlasidandir. U falsafiy, mantiqiy, psixologik, axloqiy, huquqiy jihatlarga ega ko'p qirrali hodisa bo'lib, unga munosabat shaxsning yoshi, ijtimoiy guruhi, kasbi va ta'lim darajasiga bog'liq holda farqlanadi [18, 46-b.]. Jamiyatning ichki barqarorligiga tahdid soluvchi va birdamligini buzuvchi harakatlar vatanga xiyonat asosidagi axloqiy illat sanaladi.

Vatanparvarlikning axloqiy mezonlari va unga zid illatlar tizimi

Vatanparvarlik fazilatining axloqiy mezonlari sifatida fidoiylik, burch, mas'uliyatlilik, qahramonlik, chidamlilik, sadoqat, g'urur va oriyat ajratildi (2-jadval). Ulardan tashqari vatanparvarlik jasurlik, daxldorlik va davlat siyosatiga xayrixohlik kabi fazilatlar asosida ham shakllanadi. Daxldorlik Vatan taqdiriga va yon-atrofdagi voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, kelajakka ishonch hissini anglatadi; davlat siyosatiga xayrixohlik esa fuqarolik burchini his etish va siyosatni amalga oshirishda faol ishtirok etishdan iborat.

2-jadval. Vatanparvarlikning axloqiy mezonlari va ularning mazmuni

Mezon	**Mazmuni**
Fidoiylik	Vataniga, xalqiga, tanlagan yo'li va g'oyasiga xizmat burchiga sodiqlik hamda o'zini ularga baxshida etish; buyuk maqsadlar sari tinimsiz safarbarlik
Burch	Insonning jamiyat va davlat oldida ado etadigan mas'uliyatli vazifasi; burchni his qilmaslik — befarqlik va loqaydlik belgisi
Mas'uliyatlilik	Burchni anglab, unga asoslanib faoliyat qilish; ijtimoiy-ma'naviy vazifalar oqibati uchun shaxsiy javobgarlik
Qahramonlik	Jismoniy va ma'naviy jasoratning namoyon bo'lishi; fidoiylikni kundalik hayot qoidasiga aylantirish

Mezon	Mazmuni
Chidamlilik	Qiyinchilikka nafaqat chidash, balki uni Vatan manfaati yo'lida bardosh bilan yengish
Sadoqat	Vatanga, xizmat burchiga sodiqlik; hamjihatlik, birdamlik va do'stlikni qadrlash
G'urur	Xalq va millatning yutuqlari, sha'ni va qadriyatlaridan faxrlanish; milliy merosni asrash
Oriyat	O'ziga nomunosib ishdan tiyilish, izzat-nafsni himoya qilish, obro'ni qo'ldan bermaslik

Manba: muallif tahlili asosida tuzildi.

Mezonlarni to'ldiruvchi fazilatlar orasida intizomlilik, qat'iyatlilik va mardlik alohida o'rin tutadi. A. Avloniy intizomni millat va Vatan taraqqiyoti bilan bog'lab, tartib va nizomga rioya qilmagan kishilarning ishlari notamom, o'zlari parishon bo'lishini ta'kidlagan [11, 52–53-b.]. A. Navoiy «Mahbub ul-qulub» asarida navkarning sadoqati, jonsiparligi va muruvvat bilan bog'liq mardlik mezonlarini izohlaydi [12, 29-b.]. Mardlikda rahmdillik, ochiqko'ngillik, samimiylik, oliyjanoblik kabi sifatlar mujassam bo'lishi vatanparvarlik fazilatining keng qamrovini ko'rsatadi.

Vatanparvarlikni shakllantirish, mustahkamlash va ro'yobga chiqarishda fazilat bilan illat o'rtasida dialektik kurash kechadi. Vatanparvarlikka zid illatlar yoshlarning ideali, jamiyat ravnaqi va mudofaa mustahkamligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval. Vatanparvarlikka zid illatlar va ularning ijtimoiy-axloqiy zarari

Illat	Ijtimoiy-axloqiy zarari
Munofiqlik	Yovuzlikning pinhona, zimdan amalga oshirilishi; ichki e'tiqodi buzuq, ammo sirtdan sodiq ko'ringan shaxslarning jamiyatga yetkazadigan zarari
Beparvolik	Qo'lga kiritilganga qanoatlanib, izlanmaslik va oldinga intilmaslik; javobgarlik sezilmagan joyda paydo bo'ladi, millat va davlat baxtiga zarar yetkazishi mumkin
Qo'rqoqlik	Irodani susaytiradi, shijoatni so'ndiradi, foydali harakatdan to'xtatadi; xushomadgo'ylikni keltirib chiqaradi

Illat	Ijtimoiy-axloqiy zarari
Sotqinlik	Vijdon, vafo va sadoqatni mohiyatan inkor etadi; hech qachon oqlanmaydigan, eng og‘ir axloqiy illat

Manba: muallif tahlili asosida tuzildi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1) Vatanparvarlik fenomeni axloq falsafasining asosiy tamoyili bo‘lib, insoniy fazilatning ibtidosi, har qanday axloqiy xatti-harakatning boshlang‘ich qoidasi hamda bir qator fazilatlarni o‘zaro bog‘lovchi va to‘ldiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

2) Vatanparvarlik va vatanni sevish tushunchalari o‘xshash, ammo bir-biriga teng emas: birinchisi burch, mas’uliyat, beg‘arazlik va amaliy faoliyatni, ikkinchisi esa asosan tuyg‘uni ifodalaydi.

3) Vatanparvarlikni individual va ijtimoiy darajalarga tasniflash mumkin; ijtimoiy daraja ko‘pmillatli jamiyatda barcha fuqarolarni qamrab oluvchi, boshqa xalqlar madaniyatiga hurmatni o‘z ichiga olgan inklyuziv xarakter kasb etadi.

4) Vatanparvarlik sadoqat va fidoyilik bilan uzviy bog‘liq, uning antipodi esa vatanga xiyonatdir.

5) Vatanparvarlikning axloqiy mezonlari (fidoiylik, burch, mas’uliyatlilik, qahramonlik, chidamlilik, sadoqat, g‘urur, oriyat) hamda unga zid illatlar (munofiqlik, beparvolik, qo‘rqoqlik, sotqinlik) tizimi yoshlarda vatanparvarlikni shakllantirish va baholashning konseptual asosini tashkil etadi.

6) Amaliy jihatdan yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ishontirish, namunaviylik, maqsadlilik va rag‘batlantirish tamoyillariga tayanish, tarixiy shaxslar hayotini axloqiy ideal sifatida targ‘ib qilish hamda mezonlarni empirik o‘lchash vositalariga aylantirish tavsiya etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5841063

2. Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: Sharq, 2000. – 496 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2014.

4. Islom ensiklopediyasi. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi DIN, 2017.

5. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010. – 143 b.

6. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – Toshkent: Universitet, 1998.

7. Nazarov Q. G‘oyalar falsafasi. Tajribaviy qo‘llanma. – Toshkent: Akademiya, 2011. – 84 b.

8. Qalqanov E.T. Vatanparvarlik shakllanishi va amal qilishining bog‘liqlik qonuniyatlari (ijtimoiy-falsafiy tahlil): Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: O‘zMU, 2011.

9. Кант И. Критика способности суждения. – Москва: Мысль, 1982. – 216 с.

10. Кулакова Л.И., Западов В.А. А.Н. Радищев: Путешествие из Петербурга в Москву. Комментарий. – Ленинград: Белогор, 1974. – 116 с.

11. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. – T. 2. – B. 52–53.

12. Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. – Toshkent: Fan, 1989. – 29 b.

13. Usmonov K. O‘zbek xalqi ma’naviy-axloqiy merosida harbiy vatanparvarlik g‘oyalarining talqini: Falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent: O‘zMU, 2017.

14. Qurbonov R.Yu. Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy g‘oyaning o‘rni: Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2008.